

## JINOIY ODIL SUDLOV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12510684>

*Annotation. Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi va boshqa qonunlari, xalqaro munosabatlarda, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarida kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat.*

*Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.*

*So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovnı samarali ta'minlash hamda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.*

*Amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi.*

*Xususan, nohaq ayblangan 2,3 mingga yaqin kishi oqlandi, adashib jinoyat yo'liga kirib qolgani sababli ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinishi mumkin bo'lgan 3,5 mingdan ortiq yoshlar va xotin qizlarga mahalla va jamoatchilik kafilklari asosida yengilroq jazolar tayinlanib, o'z oilalari bag'rida qoldirildi, inson huquqlarini qo'pol tarzda buzgan 60 nafar huquq-targ'ibot organi xodimlari jinoiy javobgarlikka tortildi.*

*Shu bilan birga, sud himoyasini ta'minlashdagi ortiqcha byurokratik to'siqlar saqlanib qolayotganligi, sud qarorlarini qayta ko'rishning bir-birini takrorlovchi bosqichlari mavjudligi, investorlar huquqlarining sud himoyasida bo'lishi yetarli darajada tashkil etilmaganligi va boshqa bir qator kamchiliklar sud organlarining amaldagi tuzilishini zamon talablari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *Qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning tinchligi, fuqarolarning totuvligini ta'minlash, yuridik shaxslar, davlat va jamoat manfaatlari, xalqaro shartnomalar, birinchi instansiysi, appellatsiya instansiysi, kassatsiya instansiysi, taftish instansiysi, appellatsiya muddatlari, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda odil sudlovnı amalga oshirishga ko'maklashuvchi organlari, advakaturada malaka imtihoni soddalashtirilganligi, prokurorlarning ixtisoslashtirilgan korpusi, sudyalar korpusi.*

## IMPROVING CRIMINAL JUSTICE ACTIVITIES: IMPLEMENTED REFORMS AND DEVELOPMENT TRENDS

*Abstract. The main tasks of the court are to protect the rights and freedoms of citizens guaranteed by the laws of the Republic of Uzbekistan and other laws, international relations, as well as international documents on human rights, the interests of the state and society, the rights and interests of legal entities and individual entrepreneurs protected by law. is to do.*

*The activity of the court is aimed at ensuring the rule of law, social justice, civil peace and harmony.*

*In recent years, consistent work has been carried out in our country to further improve the judicial system, strengthen measures to reliably protect the rights and legal interests of citizens and entrepreneurs, ensure effective justice and increase the role of the community of judges.*

*As a result of the actions taken, the level of protection of human rights in the judicial process reached a new level.*

*In particular, about 2.3 thousand people who were unjustly accused were acquitted, and more than 3.5 thousand young people and women who could have been sentenced to imprisonment due to mistakenly entering the path of crime were given lighter sentences based on community and community guarantees. 7 were left in the bosom of their families, 60 employees of human rights organizations who grossly violated human rights were brought to criminal responsibility.*

*At the same time, excessive bureaucratic obstacles in providing court protection remain, there are repeated stages of review of court decisions, insufficient organization of investors' rights in court protection, and a number of other shortcomings affect the current structure of judicial bodies. requires revision in accordance with modern requirements and international standards.*

**Key words:** Rule of law, social justice, peace of citizens, ensuring harmony of citizens, legal entities, state and public interests, international agreements, first instance, appeal instance, cassation instance, inspection instance, appeal periods, criminal cases bodies assisting in the implementation of justice in the courts, simplification of the qualification exam in the bar, specialized corps of prosecutors, corps of judges.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПРОВЕДЕННЫЕ РЕФОРМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ**

**Аннотация.** Основными задачами суда являются защита прав и свобод граждан, гарантированных законами Республики Узбекистан и другими законами, международными отношениями, а также международными документами по правам человека, интересами государства и общества, правами и интересами юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, охраняемые законом.

Деятельность суда направлена на обеспечение верховенства закона, социальной справедливости, гражданского мира и согласия.

В последние годы в нашей стране ведется последовательная работа по дальнейшему совершенствованию судебной системы, усилению мер по надежной защите прав и законных интересов граждан и предпринимателей, обеспечению эффективного правосудия и повышению роли судейского сообщества.

В результате принятых действий уровень защиты прав человека в судебном процессе вышел на новый уровень.

В частности, были оправданы около 2,3 тысяч человек, несправедливо обвиненных, а более 3,5 тысяч молодых людей и женщин, которые могли быть приговорены к лишению свободы из-за ошибочного вступления на путь преступления, получили более мягкие наказания на основании общественных и общественных гарантий. остались в кругу своих семей, 60 сотрудников правозащитных организаций, грубо нарушивших права человека, были привлечены к уголовной ответственности.

В то же время сохраняются излишние бюрократические препятствия в обеспечении судебной защиты, повторяются этапы пересмотра судебных решений, недостаточная организация прав инвесторов при судебной защите и ряд других недостатков требуют пересмотра действующей структуры судебных органов. в соответствии с современными требованиями и международными стандартами.

**Ключевые слова:** Верховенство права, социальная справедливость, мир граждан, обеспечение согласия граждан, юридических лиц, государственные и общественные интересы, международные договоры, первая инстанция, апелляционная инстанция, кассационная инстанция, проверочная инстанция, сроки апелляции, органы по уголовным делам, оказывающие помощь в осуществление правосудия в судах, упрощение квалификационного экзамена в адвокатуру, специализированные корпуса прокуроров, корпуса судей.

“Sud binosiga kelgan har bir inson O’zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak”

**SH.Mirziyoyev**

KIRISH: Davlatimiz rahbari bundan uch yil oldin ayni mavzuda sudyalar korpusi bilan uchrashuv o’tkazib, jumladan, “Sudyalar ongida - adolat, tilida-haqiqat va dilida – poklik ustuvor bo’lishi shart”, deya ta’kidlagandi. O’sha yig’ilishda Prezidentimiz qadimgi zamon faylasifi Sitseronning “Erkin bo’lishni xoxlasang, qonunning quliga aylan”- degan hikmatli so’zlari mag’zini chaqib, sud-huquq sohasi mas’ullariga atroflicha tushuntirib bergandi. Haqiqatdan ham, so’nggi yillarda sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar amaliy natijasini bermoqda. Bu yo’nalishda yangi qabul qilingan qonunlar, joriy etilayotgan ta’sirchan aniq mexanizmlar, miqdori tobora ortib borayotgan oglov hukmlari – bu kabi ijobjiy holatlar yurtdoshlarimizda adolat, baxtli hayot va kelajakka ishonchni yanada mustahkamamoqda.

Sud – huquq sohasida erishilayotgan samaralar xalqaro ko’lamda ham e’tirof etilmoqda.

Jumladan, yaqinda BMTning inson huquqlari bo'yicha oliy komissalari, shuningdek AQSH davlat departamenti o’z hisobotlarida O’zbekistonda amalga oshirilayotgan shiddatli o’zgarishlar, xususan, diniy e’tiqod erkinligini ta’minalash va odam savdosiga barham berish borasidagi islohotlarga ijobjiy munosabat bildirdi.

Ammo, qonunlarning qabul qilinishi, o’z-o’zidan, odil sudlov sifatini oshirishga olib kelmasligi bor gap. Shuning uchun Yurtboshimiz sudyalarning atigi 14 foizi, ya’ni 147 nafarini ayollar tashkil etishini inobatga olgan holda, gender tenglikka e’tibor qaratish lozim. Sud statistikasi oshkorligini ta’minalash ham bugungi kunning muhim vazifasidir. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar normalarini qo’llash amaliyotini kengaytirish davr talabidir. Dastlabki amaliy qadamlardan biri – sud zalida temir panjaralardan foydalanishning bekor qilinishi bo’lib, bu ham insonparvarlik tamoyili amalda ekanligini ko’rsatadi. Sudyalar, umuman, yuristlarning xalqaro huquq sohasi bo’yicha savodsizligi eng katta muammolardandir. Ayrim sudyalar qaror chiqarishda faqat sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslanmasdan, tergov materiallariga bog’lanib qolayotganligi hamda bunday holatlar qonun, sud va davlat obro’siga putur yetkazadi. Bundan buyon sud majlislarini audioyozuvdan foydalangan holda majburiy qayd etish tizimini joriy etish zarur. Toki odil sudlov xalqning ko’z

o'ngida ochiq-oshkora amalga oshirilib, adolat qaror topishi shart. Salohiyatsiz, yani bilimsiz, tajribasiz va uquvi yo'q suda tobe va qaram sudyadan ko'ra ham xavfliroqdir. Shu ma'noda, sud hamjamiyatining madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

**TADQIQOD VA NATIJALAR:** Davlatimiz rahbari sud tizimini "Bir sud-bir instansiya" tamoilli asosida qayta ko'rib chiqish, "nazarat tartibida ishlarni ko'rish" amalyotidan voz kechish, yerga bo'lgan huquqlar kafolatini kuchaytirish, odil sudlov va korrupsiya reytingini joriy etish, advakatlar rolini kuchaytirish bo'yicha ishlarni amalga oshirilganligi hech kimga sir emas. Yana bir muhim masala--huquq-targ'ibot idoralarida ishlarning tergovga aloqadorligi buzilib ketgan.

Xususan, shunday jinoyat turlari borki, ularni har qanday tergov idorasi tergov qilishi mumkin bo'lsa, ayrim moddalar esa qaysi tergov organiga mansubligi qonunda ko'rsatilmagan.

Shuningdek, 2018-2019 yillarda birinchi instansiya sudlarida jami 192ta jinoyat ishi bo'yicha 307 nafar shaxs oqlangan bo'lsa-da, hech qaysi holatda prokuror ayblovdan voz kechmagan. Shu bois tergov jarayonidagi xatolar sud majlisida aniqlansa, prakuror sudning tugashini kutib o'tirmsandan, o'z tashabbusi bilan ayblovdan voz kechadigan tartib joriy etilishi lozimligi qayd etildi. Biroq, joriy yilda aholidan kelib tushgan murojaatlarning 8 mingdan ziyodi yoki 44 foizida sudlarda ishlar to'liq va xolis ko'rilmayotgani, uzoq muddat cho'zilayotgani bildirish lozim. Bizga ma'lumki, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'limgan muqobil jazo turlarini qo'lashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatiladi. Shu o'rinda, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot choralarini qo'llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1yildan 7 oyga qisqartirildi. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksgumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot choralarini qo'llash rad etilganda muqobil ehtiyyot choralarini qo'llash huquqi beriladi. Tergovning to'liq emasligini sud muhokamasi jarayonida to'ldirish mexanizmlarini joriy etish orqali sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish instituti bekor qilinadi. Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazarat tartibida qayta ko'rib chiqish muddati 3yildan 1yilga qisqartirildi. Viloyat darajasidagi sudlar tamonidan jinoyat va fuqarolik ishlarini nazarat tartibida ko'rib chiqish instituti tugatilib, tegishli sud raislari va prokurorlarning nazarat tartibida protest keltirish bo'yicha vakolatlari bekor qilinadi.

Mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, malakali kadrlarni tanlash, sudyalik kasbiga tayyorlash va tayinlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko'rsatuvar olishni mazkur jinoyat ishini yurituvida bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prakuor yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirish. Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddatini u haqiqatda ushlangan vaqt dan boshlab hisoblash, shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushslash bilan bog'liq tezkor tadbir amalda yakullangan yoxud gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog'liq protsessual harakatlarni o'tkazishdan oldin uning advakat bilan xoli uchrashishi ta'minlanishi shartligini belgilash, aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv institutini joriy qilish. Bunda, ayrim jinoyatlar toifalari bo'yicha shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz

qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lган, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergen va keltirilgan zararni bartaraf qilgan hollarda surishtiruv va dastlabki tergov organlari bilan yozma kelishuv tuzilishi hamda unga nisbatan sud tamonidan O'zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan ko'p bo'lмаган miqdori va muddatigacha jazo tayinlash.

**NATIJALAR MUHOKAMASI:** Shu o'rinda, president Sh.Mirziyoyevning "Adolat budavlatchilikning mustahkam poydevoridir", degan so'zlarini eslab o'tish maqsadga muvofiq. Zero, bugun mamlakatda olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tarzda tus olmoqda. Buni, o'z navbatida, xalqaro hamjamiyat ham e'tirof etmoqda.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanguniga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlanguniga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Bu tushunchalarni biz aybsizlik prezumpsiyasi deb ataymiz.

BMT maxsus ma'ruzachisi president Shavkat Mirziyoev o'z lavozimini bajarishga kirishgan paytdan boshlab amalga oshirgan muhim ishlar qatorida, jumladan, sud hokimiysi mustaqilligini mustahkamlash va huquqshunoslarning o'z kasbiy faoliyatini yanada erkin bajarishini ta'minlashga qaratilgan islohotning 8ta amaliy natijasini birma-bir sanab o'tgan.

Birinchi natija-sud hokimiysi va sudlar xizmatini tashqi siyosiy bosimlardan muhofaza qilish borasida keng vakolatlarga ega bo'lган konstitutsiyaviy organ sifatida sudyalar oliy kengashi tashkil etilgan.

Ikkinci natija- Sud tizimi qayta tuzilgan, xususan, Oliy xo'jalik sudiga tegishli vazifalar Oliy sud tasarrufiga o'tkazilgan, mamuriy ishlar bo'yicha sudlarning yangi tizimi yaratilgan hamda Adliya vazirligi zimmasidagi sudlar faoliyatining ma'muriy jihatlari bilan bo'g'liq ayrim ma'muriy va texnik funksiyalar Oliy sud huzurida yangi tashkil etilgan sudlar faoliyatini ta'minlash bo'yicha department ixtiyoriga berilgan.

Uchinchi natija- prokurorlarga nisbatan munosabatda sudyalar mustaqilligining o'ziga xos ko'rsatkichi sifatida, jinoyat ishlar bo'yicha oqlov hukmlari miqdori izchil ortib bormoqda.

To'rtinchi natija- sudyalar lavozimlariga nomzodlarni saralash va tayinlashning yangi tartib tamoillari joriy etilgan.

Beshinchi natija- sudyalar almashtirilmasligi kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan.

Oltinchi natija – sudyalarini birlamchi va uzlusiz tayyorlash tizimini mustahkamlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilgan, shu jumladan, sudyalar oliy kengashi huzurida sudyalar oliy maktabi ochilgan.

Yettinchi natija- sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda e'lon qilib borilmoqda va odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini osonlashtirish hamda bu boradagi shaffoflikni oshirishga qaratilgan elektron tartib-taomillar bosqichma- bosqich tatbiq etilmoqda.

Sakkizinchi natija- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosat sohasida bir qator juda muhim islohotlar amalga oshirilgan, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun qabul qilingan va bunday choralarini amalga oshirish uchun ta'sirchan mexanizmlar yaratilgan.

XULOSA: Sud hokimiyati davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan haqiqatdan ham mustaqil bo'lishga erishish hamda sudyalar, prokurorlar va advakatlar o'z kasbiy faoliyatini hech qanday asossiz aralashuvlar va bosimlarsiz, erkin amalga oshirishlarini ta'minlash uchun hali juda ko'p ishlar qilish kerak bo'ladi.

Birinchi tavsiya: islohotlarni davom ettirish, xususan, sud islohotlarini xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish.

Ikkinchi tavsiya: sudlar faoliyatiga boshqa hech qanday organlarning aralashmasligiga erishish.

Uchinchi tavsiya: sudyalar oliy kengashi vakolatlarini kengaytirish.

To'rtinchi tavsiya: oliy yuridik ta'limni rivojlantirish.

Beshinchi tavsiya: sud tizimida gender tenglikni, ya'ni ayol sudyalar ham ishlashini ta'minlash va nogironlar odil sudlov imkoniyatlaridan boshqalar bilan teng asosda foydalanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish. Ushbu tavsiyalarning aksariyati o'tgan qisqa davrda amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

## REFERENCES

1. Sudlar to'g'risidagi qonun "Toshkent yuridik adabiyotlar publish 2022 (5-bet)
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Prossessual kodeksi "Adolat" huquqiy axborot markazi 2019 (9-bet)
3. "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-5482-son 13.07.2018
4. "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korruptsianing oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-6127-son 07.12.2020
5. "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PF-12-son 16.01.2023.
6. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning harakatlar strategiyasi" Sh.Mirziyoyev.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (10-bet)
8. "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-6041-son 10.08.2020.
9. "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida PF-6034-SON 24.07.2020
10. O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi "O'zbekiston-Toshkent" 2023.